

УДК : 514.18

**CHET TILINI BILISH - YOSH MUHANDIS UCHUN BARCHA
ESHIKLARNING KALITIDIR**

**ЗНАНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА — КЛЮЧ КО ВСЕМ ДВЕРЯМ ДЛЯ
МОЛОДОГО ИНЖЕНЕРА**

**KNOWLEDGE OF A FOREIGN LANGUAGE IS THE KEY TO ALL DOORS
FOR A YOUNG ENGINEER**



Axmedov Nurali Odilovich, Toshkent davlat transport universiteti, «Informatika va kompyuter grafikasi» kafedrasida katta o`qituvchisi.

Ахмедов Нурали Одилевич, старший преподаватель кафедры «Информатики и компьютерная графика» Ташкентского государственного транспортного университета

Akhmedov Nurali Odilovich, Senior Lecturer,
Department of Informatics and Computer Graphics, Tashkent State Transport University

E-mail: nuraliakhmedov1974@gmail.com;

[ORCID; 0009-0003-7164-1155](https://orcid.org/0009-0003-7164-1155) Phone +998946969474

***Annotasiya:** Maqolada muhandislik grafikasida o`rganiladigan mavzu va masalalarni yechishda amaliy kompyuter grafik dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish uchun xorijiy tillarni bilish muhimligi keltirilgan. Rus va ingliz tillarida o`rnatilgan grafik dasturlar misolida namuna bayon qilingan, bugungi globallashuv davrida chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini bilish yosh muhandislar uchun qanday afzalliklar yaratishi yoritilgan. Muhandislik sohasida ilmiy-texnik axborotning asosiy qismi xorijiy tillarda bo`layotgani, xalqaro tajriba va ilg`or texnologiyalarni o`zlashtirishda til bilish muhim omil ekani ko`rsatib o`tilgan. Shuningdek, xorijiy kompaniyalarda ishlash, malaka oshirish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish kabi imkoniyatlarga ega bo`lishda chet tilining o`rni alohida ta`kidlangan. Ishda til o`rganish bo`yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit s‘ozlar: ta’lim texnologiyalari; muhandislik grafikasi; xorijiy tillar, kompyuter grafik dasturi, taqqoslash; fazoviy tasavvur, yosh muhandis, globalizatsiya, texnologiya, ilmiy-texnik axborot, xalqaro tajriba, innovatsiya, ingliz tili, malaka oshirish, xorijiy tajriba, kasbiy rivojlanish.

Аннотация: В статье рассматривается важность знания иностранных языков для использования возможностей практических программ компьютерной графики при решении тем и задач, изучаемых по инженерной графике. Пример описан с использованием графических программ, установленных на русском и английском языках. В нем подчеркиваются преимущества, которые знание иностранных языков, особенно английского, создает для молодых инженеров в сегодняшнюю эпоху глобализации. Отмечено, что основная часть научно-технической информации в области машиностроения представлена на иностранных языках, а знание языков является важным фактором освоения международного опыта и передовых технологий. Также была подчеркнута роль иностранного языка в получении таких возможностей, как работа в иностранных компаниях, повышение квалификации и участие в международных проектах. В работе также даны практические рекомендации по изучению языка.

Ключевые слова: образовательные технологии; инженерная графика; иностранные языки, программа компьютерной графики, сравнение; пространственное воображение, молодой инженер, глобализация, технологии, научно-техническая информация, международный опыт, инновации, английский язык, повышение квалификации, зарубежный опыт, профессиональное развитие.

Abstract: The article presents the importance of knowledge of foreign languages in order to use the capabilities of practical computer graphics programs in solving topics and problems studied in engineering graphics. An example is given using the example of installed graphics programs in Russian and English. The article highlights the advantages that knowledge of foreign languages, especially English, creates for young engineers in today's era of globalization. It is shown that the main part of scientific and technical information in the field of engineering is in foreign languages, and that knowledge of languages is an important factor in mastering international experience and advanced technologies. The role of a foreign language in obtaining opportunities such as working in foreign companies, improving skills, and participating in international

projects is also emphasized. The work also provides practical recommendations for language learning.


Keywords: educational technologies; engineering graphics; foreign languages, computer graphics program, comparison; spatial imagination. young engineer, globalization, technology, scientific and technical information, international experience, innovation, English language, advanced training, foreign experience, professional development.

Dunyoda tillar ko‘p, ayrim manbaalarda ta‘kidlanishicha, jahon xalqlari 6700 dan ziyod tilda muloqot qilishadi. Hozirgi davrda asosan ularning ettita: **ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy**, ispan, hind tillari so‘zlashuvchilarining ko‘pligi jihatidan boshqa tillarga qaraganda er shari aholisi o‘rtasida ustunlik qilmoqda.


Masalan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy 50 dan ortiq tilni bilgan. Shulardan 20 tasi "unutilgan tillar" sanalgan. Abu Nasr Farobiy o‘zlashtirgan tillarning miqdori 100 dan ortiq bo‘lgan va ularning 10 ga yaqini "unutilgan tillar" qatoriga kirgan. Dunyo tabobat ilmiga asos solgan olimlardan biri Abu Ali ibn Sino arab, fors, turk, lotin, so‘g‘d tillarida bimalol suhbatlasha olgan. Sohibqiron Amir Temur arab, fors, mo‘g‘ul, turkiy tillarni o‘ziga yarasha o‘zlashtirganligini tarixdan barchamizga ma‘lum [1] [2]

Bugungi kunda yoshlarimizning hayotda o‘zlari tanlagan soha bo‘yicha muvaffaqiyatlarga erishishlari - bu albatta, o‘qish davrida Chet tillarni o‘rganishlariga bog‘liq. Chunki, muhandis bo‘lishlari uchun ham grafik dasturlarni o‘rganishlari zarur. Hozirgi kunda juda dolzarb bo‘lib kelayotgan o‘sha grafik dasturlar albatta, rus yoki ingliz tilidagi (versiyadagi) laridan foydalanamiz [3] [4]






Endi bu dasturdan oqilona foydalanishimiz uchun esa, albatta rus yoki ingliz tillarni bilishimiz zarur. Chunki, bu dasturlarning menyulari va buyruqlar shu tillarda tuzilgan. Muhandislar ko‘p foydalanib kelayotgan ArchCAD, AutoCAD, 3dsMAX, Photoshop, Solidworks, Kompas grafik dasturlardan birini misol tariqasida ko‘radigan bo‘lsak,



Mana ko‘rinib turibdiki, AutoCAD dasturining rus tilidagisida Menyulari va menu osti buyruqlari ham rus tilida berilgan. Dasturni mukammal o‘rganish va undan oqilona foydalanish uchun esa, albatta, rus tilini yaxshi bilishimizga tug‘ri keladi [5]; .



Fikrimiz to‘liq bo‘lishi uchun endi AutoCAD dasturini ingliz tilidagisini ham ko‘rib chiqamiz. Bunda ham menyular ingliz tilida, menu osti buyruqlar va oynalardagi buyruqlar ham to‘liq ingliz tilida tuzilgan. Ya‘ni, dasturdan to‘liq va oqilona foydalanishimiz uchun esa ingliz tilini yaxshi bilishimizga to‘g‘ri keladi. Buga o‘xshash misollarni ko‘plab keltirish mumkin. (Bugungi kun talabidagi barcha foydalanilayotgan zaruriy dasturiy vositalar) [6] [7] [8];



Ilm-fan, texnika va innovatsion texnologiyalardagi innovatsiyalar, kosmik sur'atlarda rivojlanib, xalqaro tillarda (rus, ingliz, nemis, xitoy va boshqalar) ishlaydi.

Inson faoliyatining turli sohalarida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish Chet tillarini yaxshi bilishni talab qiladi. Zamonaviy texnik jihozlarning imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanish uchun mutaxassis uskunani ishlatish tilini yaxshi bilishi kerak. [9][10][11]

Talabalarni Chet tillarni o‘rganishga undash o‘quv jarayonidagi birinchi qadamdir. Talabalar Chet tillarini bilishlari juda muhim ekanligini tushunishlari kerak. Chet elda o‘qishni yoki mamlakatdagi nufuzli tashkilotlarda ishlashni davom ettirish har bir talabadan o‘z kasbini yuqori darajada egallashini, shuningdek Chet tillarini bilishini talab qiladi [12] [13];

Texnik universitetlarda muayyan vaziyatlarda Chet tilidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarga katta ahamiyat beriladi, xususan:

- Kasbiy harakatchanlik;
- Akademik harakatchanlik;
- Xorijiy hamkorlar bilan ishlash;
- Haqiqiy manbalardan ma’lumot olish;
- Chet tilidan tezkor foydalanishni talab qiladigan ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish.

Til kompetensiyasi nuqtai nazaridan yaxshi muhandis – bu o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kerakli adabiyotlarni o‘qishga imkon beradigan darajada tilni biladigan mutaxassis. Bundan ham yaxshiroq, agar muhandis muloqot qobiliyatiga ega bo‘lsa, unda uning kasbiy mahorati yuqori baholanadi.

Bundan tashqari, bunday mutaxassis turli xil professional vazifalarni hal qila oladi: hisobot yozish, Chet ellik hamkasblar bilan muloqot qilish, xalqaro seminarlarda qatnashish, turli xil hujjatlarni ishlab chiqish. Shunday qilib, zamonaviy dunyoda rus va ingliz tili nafaqat til universitetlari va gumanitar universitetlarda, balki texnik universitetlarda ham tahsil olayotgan talabalar orasida tobora ommalashib bormoqda [14] [15];

Demak, Siz bugundan til o‘rganishni boshladingiz va ertaga ko‘ptillilar bittaga ko‘paydi.

Xulosa

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida chet tilini, ayniqsa ingliz tilini bilish yosh muhandis uchun nafaqat shaxsiy, balki kasbiy rivojlanishning muhim

omillaridan biriga aylangan. Zamonaviy muhandislik ilmi va amaliyotining asosiy qismi xorijiy adabiyotlarda, ilmiy maqolalarda va ilg'or texnologik dasturlarda aks etgan. Shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xorijiy hamkorlar bilan muloqot qilish, zamonaviy dasturiy ta'minot va texnologiyalarni o'zlashtirish bevosita chet tilini bilishga bog'liq. Demak, chet tilini egallagan yosh muhandis o'z kasbiy salohiyatini oshiribgina qolmay, global mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo'la oladi. Shu bois har bir muhandislik sohasi vakili uchun chet tilini o'rganish – kelajak sari ochiladigan imkoniyatlar eshigidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида" И.А.Каримов Тошкент «Ўзбекистон» 2011
2. Ахмад Муҳаммад Турсун "Hilol - nashr" нашриёти Т.: 2013 "Ҳикматлар китоби" 177 - 185 – бет
3. Мусурманова Айниса. Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования // Проблемы педагогики, 2019. № 1 (40). [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnye-osnovy-formirovaniya-duhovnoy-kultury-molodezhi-v-sisteme-nepreryvnogo-obrazovaniya/> (дата обращения: 04.12.2023).
4. Андреева Е.М. Инновации в образовании // Инновационные процессы в сфере образования и проблемы повышения качества подготовки специалистов: материалы междунар. науч.-практ. конф. / Удм. гос. ун-т. Т. 1. Ижевск, 2005. С. 13–18
5. Балезин Д. Зачем изучать иностранные языки? 2007. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.yourfreedom.ru/zachem-izuchatinostrannye-yazyki/> (дата обращения: 10.12.2023).
6. Ахмедов, О. Н. (2023). *Miasto Przyszłości*, 34, 110–113. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1265>
7. Jabbarov A.E., Akhmedov N.O. "Positional based on theoretical knowledge and metric issues work". The Multidisciplinary Journal Of Science And Technology. Vol 4 Is 1, (2024) 195-201-MJST. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/745/1990>
8. Akhmedov N.O. "Constructing ellipse points as an isometry of a circle using the graphical method". International Journal of Human Computing Studies. (IJHCS) | Volume: 6 Issue: 1 | Jan 2024. <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

9. Akhmedov N.O Modern Scientific Research International Scientific Journal 2023 Vol1 Issue 3
10. Karimova, G. S. *Professional kommunikatsiya va chet tilini o'rganish asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
11. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching*. – Harlow: Pearson Education, 2015.
12. Graddol, D. *The Future of English?*. – London: British Council, 2006.
13. Nurmuhamedov, S. *Texnika sohasida ingliz tilini o'qitish asoslari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
14. Abdullaeva, N. R. *Chet tillarini o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
15. Internet resurs: www.cambridgeenglish.org – Cambridge English rasmiy sayti, chet tilini o'rganish va sertifikatlash bo'yicha manbalar.